

THE MEDICAL AND ECOLOGICAL IMPORTANCE OF GREEN PLANTS ON THE GREEN PLANET

Gayrat Khakimov Tadjibayevich

Tashkent Pediatric Medical Institute 2nd Faculty of Pediatrics and Medical Biology Tutor Phone
+998946325340

Email: gayrathakimov995@gmail.com

Jorayeva Marvaridkhon Dilmurod qizi

Student of Tashkent Pediatric Medical Institute Phone: +99891 694 71 79
Email: mjourayeva2000@mail.ru

YASHIL SAYYORADA YASHIL O'SIMLIK LARNING TIBBIY VA EKOLOGIK AHAMIYATI

G'ayrat Xakimov Tojiboyevich

*Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti 2-pediatriya va tibbiy biologiya fakulteti tyutori Telefon
+998946325340*

Email: gayrathakimov995@gmail.com

Jo'ravayeva Marvaridxon Dilmurod qizi

*Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti talabasi Telefon: +99891 694 71 79
Email: mjourayeva2000@mail.ru*

Annotatsiya: Sivilizatsiyaning paydo bo'lishidan tabiatga ta'sir eta boshlagan bo'lsalarda, jamiyat rivojlanishining tezlasha borgani sari tabiatga ta'sir doirasi ham tezligi ham ortib bormoqda. Ushbu maqolamiz orqali yashil o'simliklarning foydali xususiyatlarini, tabobat olamida o'simliklarning inson hayotida uchrovchi turli xastaliklarga davo ekanligini va yashil dunyo ajoyibotlari haqida qiziqarli fikr mulohaza yuritamiz.

Аннотация: Хотя появление цивилизации начало влиять на природу, по мере ускорения развития общества увеличиваются масштабы и скорость ее воздействия на природу. В этой статье мы обсудим полезные свойства зеленых растений, целебные свойства растений в мире медицины и чудеса зеленого мира.

Annotation: While civilization has begun to influence nature, as society has evolved, so has the sphere of influence on nature. In this article, we will discuss the beneficial properties of green plants, the healing properties of plants in the medical world, and the wonders of the green world.

Kalit so'zlar: Ignabargli O'simliklar, Fitonsid, Buta, Yarimbuta, Sarimsoq.

Ключевые слова: Хвойные Породы, Фитонциды, Кустарники, Полукустарники, Чеснок.

Keywords: Conifers, Phytoncides, Shrubs, Semi-Shrubs, Garlic.

Jamiyat rivojlanishining xozirgi bosqichida yurtimiz taraqqiyotiga xissa qo'shish xar bir o'zbek farzandining muqaddas burchidir. Qaysi soxada bo'lmasin xar bir o'zbek o'z kasbiga sidqi dildan yondoshib, o'z vazifasini vijdonan bajarishi vatanparvarlikning eng chiroyligi ko'rinishidir. Shu juimladan bugungi kunimizda tabiatga etibor tobora ortib borayotganligi kelajakka etibor deb qarlishi ayni xaqiqatdir. Dunyo olimlarinig xisoboti va tajribalariga suyanib gapimizni davom ettirsak agar tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanilsa faqat okeandagi tirik organizmlar yordamida 80 mlrd odamni boqish mumkinligi aniqlangan. Vaholangki bugungi kunda sayyoramiz aholisi endigina 7 mlrd. dan oshganiga qaramay aholining anchagina qismi ocharchilikdan va suvsizlikdan qiynalib kun kechirib kelmoqda. Buning asosiy sababi insoniyat qanchalik rivojlangani sari tabiatdan foydalinish shunchalik betartib bo'lib bormoqda va o'z navbatida tabiat ham bunga o'zining aks ta'sirini ko'rsatmoqda. Tabiat faqat inson omili ta'sirida emas, tabiiy yo'l bilan xam

buzilishi mumkin. Lekin tabiatning o‘z o‘zini davolash xususiyati natijasida bunday buzilishlar deyarli sezilmaydi.

Bugungi kunga kelib insoniyat shu darajada ko‘p zarar keltirmoqdaki, tabiat insoniyat chiqindilarini tozalab ulgurmay qoldi. Natijada tabiatning to‘rt unsuri Atmosfera, Biosfera, Gidrosfera va Litosfera qobiqlarining barchasi turli ko‘rinishdagi o‘zgarishlarga duchor bo‘lmoqda. Quyida insoniyat jamiyatining Atmosferaga ta’siri haqida ma’lumotlar keltirmoqchimiz: bir hektar yashil o‘rmon 1 soatda ajratadigan kislorod 200 kishining nafas olishini ta’minlaydi. Lekin insonlarning xo‘jalik faoliyati faqat nafas olishdangina iborat emas. Bir hektar yashil daraxtzor bir kecha kunduzda 24 kg is gazini yutadi. Bu miqdor shu vaqtning o‘zida 8000 kishidan chiqadigan is gazi miqdoriga teng. Lekin is gazini eng ko‘p chiqaradigan omil bu ko‘mir asosida ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalaridir.



sanoat shaxarlarida turli sabablarga ko‘ra yashil maydonlar tobora qisqarib bormoqda. Bir tup bo‘liq daraxt bir yilda 3 kishiga yetadigan kislorod ishlab chiqaradi. Bir kishi bir kunda 25 kg toza kislorod xazm qiladi. Shu bilan birga Yer shari aholisining asosiy qismi yashaydigan shaharlarda daraxtzorlar yetishmaydi. Bir tup chinor daraxti 10 ta konditsionernerning vazifasini bajaradi. Suvni ko‘p bug‘latishda Chinorga yetadigan o‘simlik juda kam. Bir tarafdan Chinor suv bug‘latish jarayonida xavo xaroratini pasaytirib yoz kunlarining salqinlashishiga yordam bersa, boshqa tarafdan Yer osti suvlarining me'yorda saqlanishiga ta’sir etadi. Markaziy Farg‘ona, ayniqsa Qo‘qon shaxri joylashgan xududi yer osti suvleri yer betiga yaqin joylashganligi va zaxligini xisobga oladigan bo‘lsak Chinor daraxti biz uchun qanchalik ahamiyatli ekanligini bilish qiyin emas.

Bitta reaktiv samolyot 8 soat uchishi davomida 75 tonna kislorodni yo‘qotadi. Bu taxminan 8 soat davomida 10000 kishi yo‘qotadigan kislorod miqdoriga teng. Shu yo‘qotilga kislorodni 8 soat davomida 50 hektar o‘rmon ishlab chiqaradi va xavoni kislorod bilan qayta ta’minlaydi. Lekin bu atmosfera muammosini hal qila olmaydi, chunki Yer sharida kuniga minglab samolyotlar uchiriladi. Xar xil o‘simliklar atmosferaga 350 mlrd tonna sof kislorod chiqaradi.

Mamlakatlarda aholi jon boshiga o‘rmon resurslari bilan ta’minlanganlik darajasiga ko‘ra Kanada 24 hektar, Rossiya 5 hektar, Shvetsiya 3 hektar, AQSHda 1,5 hektar, O‘zbekistonda 0,12 hektar (Farg‘ona vodiysida 0,11hektar) o‘rmon to‘g‘ri keladi. Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki Farg‘ona vodiysida daraxtlarga juda ehtiyojkorona munosabatda bo‘lish talab etiladi.



O‘zbekistonmiz xududida 68 xil daraxt, 320 xil buta. 134 xil yarim buta, 2953 xil giyoh turlari mavjud. Ammo ularning ko‘philigi ximoyaga muxtoj va himoya qilib maqsadida qizil kitob ro‘yxatidan joy olgan. Yer yuzida 4 mlrd hektar o‘rmon mavjud. Bu Yer shari quruqlik maydonining uchdan bir qismiga teng. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib sayyoramiz o‘rmonlari 800mlrd odamga yetgulik kislorod chiqarishini xisoblash mumkin. Lekin 7mlrd aholisi bo‘lgan Yer sharining ba’zi xududlarida kislorod pulga sotiladi (masalan Fransiyaning Parij ko‘chalaridagi kislorod butkalarida).

Bir hektar 10-15 yillik yashil daraxtzor bir yilda 50 tonna changni yutib, filtrlaydi, shu bilan birgalikda 3 tonnadan 5 tonnagacha karbonat angidrid gazini yutadi. Lekin chang va karbonat angidridning manbai bo‘lgan





Bir gektar maydondagi o'simliklar bir yilda 10 kg fitonsid ishlab chiqaradi. Fitonsidlar-o'simliklar hosil qiladigan faol modda bo'lib, boshqa organizmlar masalan zararli zambrug'lar, bakteriyalar, asosan, mikroblarni o'ldiradi yoki ularning o'sish va rivojlanishini to'xtatadi. Shu o'rinda yana, fitonsid o'simliklar immuniteti va biotsenozlardagi organizmlarning o'zaro munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. Asosan, ignabargli daraxtlarning fitonsid ishlab chiqarish xususiyati shaharlarni ko'kalamzorlashtirishda ahamiyatga ega.

Ushbu fitonsidlar bir qancha kasalliklarni

davolashda qo'llaniladi. Masalan, dizenteriya, difteriya, sil kasalliklar va boshqalar. Yurak qon tomirlarini mustaxkamlaydi. Asab faoliyatini yaxshilaydi. Piyoz, sarimsoq, yerqalampir va boshqa o'simliklarning fitonsidi qo'shilgan preparatlar tibbiyotda qo'llanadi. Piyozda mavjud bo'lgan fitonsidlar bo'g'ma va sil kasalligi tayoqchalarining kushandasiga sifatida ta'sir ko'rsatadi. Shu tufayli ham avlod-ajdodlarimizning sevimli oziq-ovqat masallig'idan biri piyoz bo'lib qolgan. N.Z.Umnikovning ma'lumotiga ko'ra, 1805 yilda mamlakatga tarqalgan qorin tifi epidemiyasida ming-minglab kishilar qirilib ketgan. Biroq oziq-ovqat tarkibidan sira piyoz arimagan kishilar bu xavfli kasallikka chalinmaganlar. Shu o'rinda sarimsoq piyozni ham asal va limon sharbati bilan aralashmasi yurak infarkti uchun davo bo'ladi.



Fitonsidlarni veterinariya amaliyotida ko'plab qishloq xo'jaligi hayvonlari orasida uchrab turadigan turli xil kasalliklarni davolashda qo'llab, ularning o'ziga xos ta'sir xususiyatlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Respublikamiz shaharlarida normal yashash uchun har bir kishiga 30m^2 yashil daraxtzor to'g'ri kelishi kerak. Vaholangki bu ko'rsatkich 10m^2 ni tashkil qiladi xolos. O'rmonzorlar xavosida zararli mikroorganizmlar soni shaharlardagiga nisbatan 100-300 barobar, bakteriyalar esa 70 barobar kam. Sayyoramizning deyarli hamma qismida uchraydigan o'simliklarning tabiat va inson hayotidagi roli beqiyosdir. Tan olishimiz kerakki har birimiz foydalanadigan har qanday narsamizni qanchalar ahamiyatli ekanligini bilsak uning qadriga shuncha ko'p yetamiz, asrab-avaylaymiz.

Misol uchun o'simliklarni ahamiyatiga to'xtalsak, avvalo bizni yashashimiz uchun, nafas olishimiz uchun kislorod ishlab chiqaradi, oziq-ovqat, sanoatda kiyim-kechak va turli buyumlar, materiallar ishlab chiqariladi. Hayvonlar uchun ozuqa, yem-xashak sifatida beriladi.

Yashab turgan joyimizga ajoyib manzara berib qolmasdan sog'ligimiz uchun foydasi ham katta xisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda yashil zo'nalarini ko'paytrish borasida bir qator ishlar olib borilmogda. Shunga qaramasdan xududlarimizda xali ham bilib bilmasdan daraxtlarni kesish va ularni quritish kabi ishlar davom etayotganligi achinarli xolatlarimizdan biri. Xullas yashil o'simliklarning biz bilgan va bilmagan foydalii jihatlari juda ko'p. Bizda shuncha boyliklar berayotgan ona tabiatni muhofaza etish bizni burchimiz hisoblanadi va o'sib kelayotgan yosh avlodni ham tabiatga muhabbatli qilib o'stirish bizni qo'limizda. Yoshlarga buni singdirish ko'p narsa talab etmaydi, lekin juda ko'p narsalarni hadya etadi. Muxtasar qilib aytganda, ona tabiatga mehr-muhabbatli bo'laylik. Oilalarda, mahalla va qishloqlarda ekologik tarbiyani kuchaytiraylik. Orastalikka rioya qilishimiz, gulu giyohlar maskani va daraxtzorlarni avaylab parvarishlashimiz zarur. Agar biz tabiiy go'zalliklarga ziyon yetkazmaslikni odat qilsak, avlodlar kelajagi va xayotning davomiyligi uchun shunchalik ko'p qayg'urgan bo'lamiz.

Foydalanolgan adabiyotlar:

1. Azizova S.S. Farmakologiya. Darslik Toshkent 2000-yil
2. I.Muhammedov, E.Eshboyev, N.Zokirov, M.Zokirov "Mikrobiologiya, Immunologiya, Virusologiya" "Yangi avlod" NMM, 2006
3. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/download/67496>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBmon_resurslari
5. <https://ecoohotnadzor31.ru/uz/which-plant-produces-the-most-oxygen-oxygen-for-indoor-plants.html>
6. <http://staff.tiame.uz/storage/users/76/presentations/sp2Z6Oa7ZwqFuRtVTUzEjUQsyiCuGkkI1UHr1x1tv.pdf>